

Ona yurtning - oltin beshiging

# TONG yulduzi

№ 35  
(66472)

2004 yil  
30 avgust - 5 sentabr

Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiqa  
boshlagan

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Mutal BURHONOV musiqasi,  
Abdulla ORIPOV so'zi

Serqiyosh, nur o'lkam, dan baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'l do'st mehribon.  
Yashnagan to'abadi ilmu fani, ijod,  
Shuhrating portasini to'la bor jahon!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qano!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!


## MO'JIZA YARATGAY OZODLIK

Qayda bo'lmang, qayerda yurmang, onamiz bizni kuzatib turadi. Dasturxonda o'rnimiz bo'sh bo'lsa, albatta tovoqda oshimiz ortadi. Bunga sabab - onamiz, ona uyidagi xotirjam hayotimiz... Qizcha quchib qo'g'irchoq, bolam, deydi. Alla eshitib, alla aytishga chog'lanadi. Onalikka uyg'ongan mehr bu. Ayol zotining oliy martabasi ham ONALIKDIR... Tinch hayotni istagan onalarning bir oyog'i o'z yerida tursa-da, nigohi dunyoni kuzatadi. Jamiyatda, jamoatda ishi bor uning.

O'zbekistonda istiqloq tufayli onalarimizga, aziz opa-singillarimizga g'amxo'rlik jabhasida qilingan ishlar salmoqlidir. Masalan, 2002 yil «Onalar va bolalar yili» deb e'lon qilindi, iqtidorli o'quvchi-qizlarni rag'batlantirish uchun Zulfiya nomidagi maxsus Davlat mukofoti

(Davomi 3-betda)

# -1- Sentabr, ayting, qanday kun? -Istiqlol bergan oppoq tongday kun!



## TASVIRIY SAN'AT TILSMLARI SARI

Yaqinda O'zbekiston mustaqilligining 13 yilligiga bag'ishlab, O'zbekiston Respublikasi «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi hamda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi hamkorligida an'anaviy «Eng ulug', eng aziz» Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Ko'rik-tanlovga taqdim etilgan ijodiy ishlarda ma'naviy-ijtimoiy ahamiyatga ega dolzarb mavzular, zamondoshlarimizning bunyodkorlik sifatleri keng yoritilgan. Shunday ko'rik-tanlovlar viloyat va tumanlar doirasida ham o'tkazilib, joylarda g'oliblar aniqlanib, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Bu yilgi tanlov nihoyatda yuqori saviyada o'tdi. Vatanimizning boy o'tmishi, bugungi ravnaqi va buyuk kelajagi tasviriy vositalar - fotosuratlarida o'z aksini topgan. Ko'rik-tanlovga 400 ga yaqin adabiy publitsistik asarlar, 250 ta san'at asari, 200 ta fotosurat, 35 ta teleko'rsatuv va radioeshittirishlar - jami 900 ga yaqin ijodiy ish kelib tushdi.

Bu yilgi tanlovda yosh ijodkorlar faol qatnashdilar. Tasvirlardagi mavzularning dolzarbligi, mualliflarning mahorati yaqqol ko'zga tashlanib turdi. Tanlovga qo'yilgan fotosuratlarida ham mustaqilligimizning dadil odimlari, buyuk ne'matlari, bugungi kun qahramonlari siymolari keng yoritilgan. Tanlovga kelib tushgan ishlarning deyarli barchasi mustaqilligimizning 13 yilligiga bag'ishlangani kishini quvontiradi.

Tanlovga yuborilgan asarlar ichida shoir Mirpo'lat Mirzoning «Saylanma»si, yozuvchi Orif Omonovning «Olov qalbli odamlar» nomli kitobi va adabiyotshunos olim Ibrohim Haqulning O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor hayoti va ijodi haqidagi essesi

ko'pchilikda chuqur taassurot qoldirdi. Tanlovga qo'yilgan ishlarning nihoyatda saviyasi baland, ularda hayotimiz haqqoniy tasvirlangan. Yaqinda ko'rik-tanlov hay'at a'zolari taqdim etilgan ijodiy ishlarni tanlov Nizomida belgilangan tartib asosida ko'rib chiqib, shoir Mirpo'lat

Mirzo jahon she'riyatidan qilgan tarjimalari jamlangan «Saylanma» va «Somon yo'li chechaklari» kitoblari uchun, jurnalist Asror Abrorxo'jayev «Mehr ko'zda» turkum teleko'rsatuv uchun, rassom Anorqul Boybekov «Sirdaryo kechuvlari» turkumidagi tasviriy san'at

asarlari uchun, fotomuxbir Sergey Spiridonov «Harbiy vatanparvarlik» mavzuidagi fotosuratlar uchun, dizayner Nodir Shoazizov Inson ruhiyati, uning qalbi va ongida kechayotgan hurlik o'zgarishlarni tasviriy vositalar orqali mohirona yoritgani uchun ko'rik-tanlov g'oliblari deb topildilar. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan Murotboy Nizonov va Toraniyoz Qalimbetovlarga «Borshitaulli azamat dehqon» videofilmi uchun, Qashqadaryodan Orif Omonovga «Olov qalbli odamlar», «Fidoyi» kitoblari uchun, Samarqanddan Haydar Sanayevga «Mening qishlog'im», «Bodom gullaganda» turkum asarlari uchun, Toshkentdan Malika Niyozmatovaga «Noviy vek» mustaqil gazetasida chop etilgan «Mehr va muruvvat yili»ga bag'ishlangan turkum maqolalari

uchun, Xorazmdan Dilshoda Rahmatullayevaga «Ekologiya», «To'rt fasl», «Oqar daryo» tasviriy san'at asarlari uchun, Toshkentdan Shuhrat Oripovga «Mustaqillik, ma'naviyat tiklanish davri» maqolalari uchun, Toshkentdan

### Niyat

Ibrohim Haqulga «Tafakkur» jurnalida e'lon qilingan «Abdulla Qahhor jasorati» essesi uchun, Namangandan Ziyovuddin Mansurga «Dilrabolar diyori» she'riy to'plami uchun, Toshkentdan Rahimjon Rizamuhamedovga rassomning «Amir Temur shajarasi» asari uchun, Toshkentdan telejurnalist Dilbar Rahimovaga «O'zbekiston milliy uyimiz», «Yagona oilada» turkum ko'rsatuvlari uchun tanlovning rag'batlantiruvchi mukofotlari nasib etdi.

Men ham mana shu tanlovda o'zim ishlagan rasmlarim bilan qatnashganimdan mamnunman. Garchi ko'rik-tanlovda o'rin

ololmagan bo'lsam-da, bu tanlov men uchun yana bir sinov, katta tajriba maktabi bo'ldi. Men keyinchalik ko'rik-tanlovga taqdim etilgan sara ishlar bilan tanishib chiqib, ijodiy izlanishni, tafakkur sehri va mo'yqalam sir-asrorlarini, tasviriy san'at tilsimlarini ochishga intilib, o'z ustimda qunt bilan ishlab, bundan-da chiroyli va betakror rasmlar chizishga, imtiyozli o'rinlardan birini egallashga astoydil harakat qilaman. Buning uchun albatta orzu niyatlarim yo'lida tinmay izlanishim kerak.

Venera TURDIYEVA,  
Parkent tumani,  
Zarkent qishlog'idagi  
15-maktab o'quvchisi.




# 2

## TONG YULDUZI

Qishlog'imizda sportsevar o'g'il-qizlar juda ko'p: Orif, Uchqun, Elyor, Hulkar, Shahnoza, eh-he, sanayversam, oxiri ko'rinmaydi. Sport bilan shug'ullanish uchun esa sharoitlar yetarli emasdi. Yog'in-sochinli kunlarda ham tashqarida to'p tepardik, tuproqni changitib o'ynardik...

## O'ZIMIZDAN QO'YMASIN...

Shunday kunlarning birida maktabimiz direktori Erkin aka Ochilov bir tashabbus bilan chiqdilar: «Kim, qachon bizga sharoit yaratib berarkin, desak o'tiraveramiz. Hashar yo'li bilan maktabimizda sport zali qursak-chi?..» U kishining taklifi bizga ham ma'qul keldi, o'z kuchimiz bilan sport zali qurishga bel bog'ladik. Yetakchi o'qituvchimiz Orziqul aka Qodirov, jismoniy tarbiya fani ustozimiz O'ktam aka To'qiliboyev, Husan aka Gadoyevlar boshchiligida qurilishni boshlab yubordik. Biz, yuqori sinf o'quvchilari loydan g'isht quydik. Qolganlar esa bizga ko'makchi bo'ldilar. Qurilish uchun zarur bo'lgan ustunlarni ham



xonadonlardan yig'ib chiqdik.

«Ko'pchilikdan quyon qochib qutulmas» deganlari rost ekan. Ko'z ochib yumguncha sport zalimiz ham qad rostladi. Endi yomg'irdan, qordan qochib yurmay, yil davomida bemaol sport bilan shug'ullanaveramiz.

Xurshid XOLBOYEV,  
Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi  
49-maktabning 10-sinf o'quvchisi.

## INSHO O'G'RISI

8-sinfda bo'lib o'tgan bir voqea hecham yodimdan chiqmaydi. Yangi o'quv yilining birinchi kuni mustaqillik haqida insho yozgandik. Inshoni yozib bo'lganlar uni o'qib berib, o'z baholarini oldilar. Ulurmaganlar esa ertasi kuni yozib kelishlari kerak edi. Ibrohim ismli sinfdoshim inshoimni berib turishimni so'radi. Yo'q deyishimga qaramay, tanaffusda papkamdan olib, so'zma-so'z ko'chirib olibdi. Dars boshlanishi bilan birinchilardan bo'lib qo'l ko'tarib, inshosini o'qib berdi. «Nega ko'chirtirding?» deb koyisalar, o'zimni qanday oqlayman, deya qo'rqib turgandim. Ustozim esa mamnun holatda Ibrohimga «4» baho qo'ydi. Mendagi qo'rquv hissining o'rmini hayrat egalladi. Axir kechagina mana shu inshoimni maqtab, uni a'loga baholagan edilar-ku...

Nahotki ustozim insho meniki ekanligini sezmagani bo'lsalar? Yoki sezib, sezmaslikka oldilarmikan, degan savol qiynardi meni. Yaqin dugonalarimdan biri bu savolimga javob topib berdi: «Axir o'zing o'ylagin, ustoz nechta sinfga darsga kiradilar. Hammaning inshosi mazmunan o'xshash bo'lishi tabiiy-ku. Biz axir bir zamonda yashayapmiz...»

Ibrohim o'zida yo'q xursand edi. Men tufayli ikkidan qutulib qoldida, axir. Men esa shu kundan boshlab hech kimnikiga o'xshamaydigan narsalar yozishga ahd qildim.

Malohat TO'XTAYEVA,  
«Yangi avlod» klubi a'zosi.



Hech kimga sir emaski, hozirgi kunda maktab ma'muriyatini ham, ota-onalarimizni ham maktab formasi muammosi o'ylantirib kelyapti. Ayrim o'quvchilar maktabga xuddi biror to'y-yu tantanaga kelayotgandek qimmatbaho kiyimlar kiyib, yasanib kelishadi. Boshqa o'quvchilarning

Ahmadjonovanning sa'y-harakatlari bilan «Qizil tong» ochiq turdagi hissadorlik jamiyati bilan shartnoma tuzildi. Hozir jamiyatning bir necha xodimlari o'quvchilarning o'lehamlarini olib, buyurtma berishyapti. Formaning narxi ham unchalik qimmat emas. Kam ta'minlangan oilalarning farzandlari uchun yil davomida ozozdan to'lab borish imkoniyati ham yaratilgan.

## YECHIMI TOPILDI

esa ko'ngillari o'ksib qoladi. Axir farzandiga qimmatbaho kiyimlar sotib olib berishga barcha oilalarning ham qurbi yetavermaydi-ku, axir.

Bizning maktabimizda esa bu masalaning yechimi topildi. Yangi o'quv yilidan maktabga bir xil kiyimda boradigan bo'ldik. Jonkuyar maktab direktorimiz Ma'rufa opa

Menimcha, bu juda to'g'ri yo'l, hech kimning ko'ngli o'ksimaydi. Poytaxtimizdagi boshqa maktablar ma'muriyatlari ham bizdan o'rnak olsalar, yomon bo'lmasdi.

Nodira MAJIDOVA,  
Poytaxtimizdagi  
70-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi.

(Boshi birinchi betda)

ta'sis etildi. Har yili ko'plab xotin-qizlar davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lyapti.

Yaqinda Andijon viloyatidagi bir gimnaziya bo'ldim. Gimnaziya yangi qurilgan ekan. Ish boshlaganiga endigina

eta boshlaganimizda ayrimlar shartmikan shu harfga tezda o'tishlik, kutubxonalaridagi kirill alifbosidagi minglab kitoblarni bunaqada kim o'qiydi, degandi. Lekin biz dunyoga chiqayapmiz. Lotin alifbosidagi o'z gazetamizni ehtimol tojik do'stlarimiz o'qiy olmaslar. Lekin turk, fransuz, inglizlar

tashlaysizlarki, oqibatda sizlarning huzuringizga tabiat va jamiyat saboqlaridan qurollanib borishga to'g'ri keladi. Siz qaysi qo'shiqni aytayapsiz, qanday kuyni tinglayapsiz, puxta bilib olib olamingizga kirishimiz darkor. Istiqloq sabab, xoh sport, xoh bilim va ijodda

ham diqqatga sazovordir.

Mustaqillik yillarida eng katta yutuqlardan biri O'zbekistonda go'daklarning o'limi keskin kamayganligidir. Ya'ni, ilgari har 1000 nafar chaqaloqdan 38,1 nafari nobud bo'lsa, bu ko'rsatkich istiqloq yillarida 18,3 nafargacha tushdi. Bu Markaziy Osiyoda eng

# MO'JIZA YARATGAY OZODLIK

bir yil bo'libdi. Bizning borishimizdan rahbarlar ham, ustozlar ham bexabar edi. Gimnaziya kirib ketyapmizu oq ko'ylak, qora shim kiygan o'g'il bolalar, oq kofta, qora yubkadagi qizaloqlar o'ng qo'llarini ko'ksilariga qo'ygan holda «Assalomu alaykum» deb iltifot ko'rsatishmoqda edi. Ochig'i, bu o'zbekona tavozedan ko'zlarimga yosh keldi. Buni butun olamga ko'z-ko'zlasam arziydi. Chunki men Sho'ro davrida butun rahbarlar ruscha gaplashadigan, o'zbeklar o'z so'zini anglatishga qiynaladigan, boshqacha urf-odatlaridan xabarim bor edi-da. Buni turmushidan noliyotgan ayrim kattalarga, bizda maosh ham, yashash ham, kiyinish ham hammasi joyida, deb qayta-qayta aytgim keldi. Bizda harakatga yarasha barakat bor!

Damas, Tiko, Matizlar kezib yurgan ozoda Andijondan qo'shni viloyatga o'tganim ko'z oldimda tez-tez jonlanadi. Chang va iflos ko'chalar, xunuk hovli joylar, ichkilikka moyil odamlar. Almisoqdan qolgan eski mashinalarni itarib yurgazishga urinayotgan yoshlar... Ularda ehtimol pul ko'pdir. Ammo uni o'z o'rnida did bilan sarflashmasdi. Shuning uchun ham bizlarnikidek did bilan qurilayotgan uylar, bezatilayotgan ko'chayu gulzorlarni ko'rmadim. Chindan ham mamlakatimiz gullab, yashnab bormoqda. Bunda bolasini did-farosatli qilib tarbiyalayotgan onalar, ona so'zini quloqqa olayotgan bolalar sabab. Biz uylar quryapmiz, go'zallikka intilayapmiz. Odamlarga mehr-muruvvatni, oqibatni qaytarib berayapmiz. Shuning uchun ham qonunimiz qabul qilingan kunda 2004 yilni yurtboshimiz «MEHR va MURUVVAT yili» bo'lsin deganlarida, xalqimiz qo'sh-qo'llab yurakdan quvnaq qabul qildi. Asli yangilikni hamma birdek qabul qilmaydi. Aytaylik, «Tong yulduzi»mizni birinchilardan bo'lib lotin alifbosida chop



o'qiydi... O'z yo'limiz, ertangi kunimizga ishonib yashasak, ishlarimiz olg'a chopaveradi, degandik. Mana, yillar o'tib lotin harfini ham, rus tili saboqlari sabab, kirill alifbosini ham bemalol o'qiydigan avlod shakllandi.

Hozir shahar va qishloqlarimiz tez o'zgarib bormoqda. Tekis yo'llar, mirishkor xalqim ekan yo'l bo'ylaridagi gulu

gulzorlar... Kech kuzda bolajonlar yiqqan gul urug'lari sabab, bahorda uy oldi, ko'cha chetlariga kim chiroyli gul o'stirish musobaqasi o'tkazilishini aytmayisizmi? Boriga baraka deb, kerak bo'lsa yo'qni yo'ndirib, ijod va hunar bilan yashaydigan xalqmiz.

Hatto bozorlarni ham avval yasatib, yashnatib, keyin jonlantirishga kirishyapmiz.

Q o ' s h n i respublikalardagidek qishda zax, yozda jazirama joylarda savdolashmaylik, deyapmiz. Biroz shoshmay, ammo shinam joylarda hatto tijoratnida yurgizmoq qanday yaxshi! Buni tushunmaganlar turli mish-mishlarga quloq soladi.

Men bir vaqtlar aytaylik qoshiqdan tortib, shamgacha aniq narxi yozilgan jamiyatni ko'rganman. Bu zukkoligim bilimdonligimiz bo'lsa, narx-navo borasida ham shunday sharoitga yetishamiz. Ona ekanman, bolamga: -Bu bizning bayrog'imiz, u falon yili qabul qilingan, deb o'stirgim keladi. Vatanimiz tug'i bilan faxrlanib, qomusimizni yod olib yashashsin ular. Agar o'lsam bayrog'imizga o'rab ko'minglar, deb jangga kirgan va g'alaba qozongan yosh vatanparvarlar haqida o'qib-o'rganib ulg'ayanimdan bo'lsa kerak bu!..

Men burro javob beradigan Siz bolajonlar bilan ko'p suhbatlashaman. Sizlar hatto askiyani ham juda yaxshi tushunasiz, yuzlab she'rlarni ham yod olasiz, turli tildagi kitoblarni o'qiy olasiz. Shuning uchun ham shunday savollarga ko'mib

yaxshilarga yondoshib yashash kerak. Axir ota-bobolarimiz ham tentagini aqligim deb erkalab, chin insonlar safiga qo'shib yuborgan-ku. Qolaversa, odam bolasi dunyoga umid bilan keladi. Ammo atrofidagi odamlar ta'sirida shakllanadi.

Jahondagi bolalar va onalar huquqini himoya qilish bosh maqsadi bo'lmish YUNISEF xalqaro tashkiloti buyurtmasiga ko'ra yaqinda Markaziy va Sharqiy Yevropa

ko'pchiligingiz allaqachon oq dunyolarga chiqib olgansiz. Shunday bilag'onlarni hammaga o'rnak qilib ko'rsatishdan aslo zerikmasligimiz kerak. Mashhur shaxmatchi Rustam Q o s i m j o n o v g'alabasi sharafiga mamlakatda bayram bo'lib ketganini eslang. Iloji bo'lsa yomonotliq odamlar haqida kamroq o'qib va eshitib,

yaxshi ko'rsatkichdir. Onalar o'rtasida ham o'limning keskin kamayishi kuzatilmoqda, ya'ni har 100 ming homilador ayoldan 42,9 nafari hayotdan ko'z yumgan bo'lsa, bu ko'rsatkich mustaqillik yillarida 33,5 nafargacha kamaydi. Holbuki, ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda, Qirg'izistonda 43,8, Tojikistonda 45,4 nafarni tashkil etadi...

Azal-azaldan O'zbekoyimlar o'z obro'si, mavqei va hurmati bilan tillarda doston bo'lishgani barchaga ma'lum. Chunki qonimizda hech bir kitoblarga yozilmaydigan, tosh-tarozi bilan o'lchanmaydigan shunday fazilatlar borki, uni boshqa millatda ko'rish dargumon. Andisha, uyat, oriyat, hayo, ibo so'zlarining tagida qanchadan-qancha ma'no bor-a! Buyuk mutafakkirlardan Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr al-Farobiy, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburlarning tarbiyasiga, ijodiga, izlanishiga, asrlab yashashlariga sabab ehtimol ona suti bilan kirgan mehrdir.

Shijoatli To'maris, vafodor yor Nodirabegim, dono maslahatgo'y Bibixonim kabi oqila ayollar imkoniyatlari chegaralanmaganida o'z zamonasida ko'proq amallarni bajargan bo'larmidi?

Endi zamonamiz keldi, biz onalar sezgirlikni qo'ldan bermasak, siz bolajonlar chin inson bo'lib kamol topasizlar. Istiqloqimiz-istiqbolimiz onalardan ham, bolalardan ham bilimdonlikni, ozod va obod Vatanda erkin yashash uchun o'z makoniga mehr qo'yimlikni talab etmoqda. Chindan ham bizning diyordek go'zal, orzular amalga oshadigan, baxti barqaror yurt hech yerda yo'q!

*Ozodlik quyoshdek qadrti,  
Rayhondek, yalpizdek atirtti,  
O'ziga to'n bichib o'zicha,  
Kiygani, yegani tatirtti.*

*Non kabi me'daga tegmaydi,  
Tok kabi qaddini egmaydi,  
Jiydani chaqirib ovloqdan,  
Istasa qayrag'och ekmaydi.*

*Foshkandiy, Farg'oniy bo'lib u,  
Termiziy, Buxoriy - kulib u,  
Yashaydi tug'ilgan yerini,  
Ismiga egizak qilib u.*

*Bobolar yog'dusi osmonda,  
Tirik jon mavzusi omonda,  
Ozodlik aslida o'zimiz,  
Yashasak erkin, hur zamonda.*

*El arv, dil arv bir shodlik,  
Onajon tabiat - obodlik,  
Insonning o'zi bir mo'jiza,  
Mo'jiza yaratgay ozodlik!*

Umida ABDUAZIMOVA.


## Onalar va bolalar



M D H davlatlarida aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi tadqiq etildi. O'tkazilgan monitoring birinchi galda dunyo davlatlari «Bolalar huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyani og'ishmay va samarali amalga oshirishlarini, farzandlarimiz istagan va ular talab qilishga haqli bo'lgan osuda, tinch va farovon hayotni yaratishlari shart ekanligini yana bir bor ko'rsatdi.

-Shunisi quvonchliki, tadqiqot natijalari O'zbekistonda aniq maqsadga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar o'tkazilayotganini namoyish qildi, -dedi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Brenda Vigo xonim.

YUNISEF ma'lumotlariga ko'ra, sog'liqni saqlash, maktab va kasb-hunar texnik ta'limiga sarflanayotgan davlat harajatlari hajmi Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O'zbekistonda eng yuqori ekan. Iqtisodiy siyosat ijtimoiy siyosat bilan uyg'un tarzda olib borilishi



Bolalar, siz qaldirg'ochni yaxshi tanisiz-a? Javob berishga biroz shoshilmang. Biz har yili bahorda uchib keladigan qaldirg'ochni emas, Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi «Qaldirg'och» dastasini nazarda tutaymiz. Yo'q deysizmi? Unda dasta ishtirokchilari bilan tanishib oling.

«Qaldirg'och» dastasining tashkil topganiga bu

yil 4 yil bo'ldi.

Uning a'zolari Sanjar, Shohruh va Kamola sizning tengdoshingiz.

Dastaning faoliyati, kelajak rejaları haqida yaxshisi ularning o'zlari hikoya qila qolishsin:

-Men, Kamola Pardayevaman. Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 16- maktabning 6-sinfida o'qiyman.

Onam Gulchehra opa viloyat teleradiokompaniyasida muharrir bo'lib ishlaydilar. Oilada uch nafar farzandim. Ikki nafar opam bor, Aziza va Durдона. Hammamiz ham san'atni sevamiz. Ayniqsa, men. Oyimning aytishlaricha, qo'shiq aytmalar, uxlamas ekanman. O'zim ham uch yoshligimdan qo'shiq kuylay boshlagan ekanman. 5

yoshimda «Ko'rgani keldim sog'inib» nomli qo'shiqni yoddan bilarkanman. Birinchi

## «QALDIRG'OCH»NING

marta meni katta sahnaga baletmeyster Oysha Aytmaganova olib chiqqanlar. O'shanda men poytaxtimizda o'tadigan



Navro'z bayramida qatnashganman. To'rt qatorgina qo'shiq aytgandim. 2002 yili Bo'stonliqda bo'lib o'tgan qo'shiq tanlovida qatnashib, g'olib bo'ldim. 2003 yili «Boysun bahori» xalqaro qo'shiq festivalida ilk bor ishtirok etdim. Bu yil esa ana shu festivalda bizga omad keltirgan qo'shig'imiz nomi bilan ataluvchi «Qaldirg'och» dastamiz bilan birgalikda

ishtirok etdik. Men o'zim sevib ijro etadigan qo'shig'im «Biyyu»ni ijro etdim:

*Enasoydan bir tovush,  
Momom chalar chanqovuz.  
Chanqovuzning ovozi,  
Jaranglaydi sho'x hanuz.  
Biyyu - biyyu - bi...*

Qo'shiqlarimizni festival mehmonlari va tomoshabinlar uzoq vaqt olqishlashdi...

Yozgi ta'tilda O'zbekiston xalq artisti Kommuna aya Ismoilovadan 7 ta yangi qo'shiq o'rgandim. Ushbu qo'shiqlarimni ham katta-katta sahnalarda kuylashni orzu qilaman...

-Dastamizning gurkirab ketishi uchun hali ko'p ishlar qilishimiz kerak,- deydi dastaning yana bir faol a'zosi Shohruh Abiyev.- Yana, onajonlarimiz orzulagandek yaxshi san'atkor bo'lishga intilishimiz lozim. Bobolarim el tanigan mahalliy san'atkor bo'lishgan ekan. Ularga

munosib avlod bo'lishim uchun juda ko'p mehnat qilishim kerakligini ham yaxshi bilaman. Hozirgacha kuylagan qo'shiqlarim soni anchagina bo'lib qoldi. Ayniqsa, Po'lat Mo'min she'rlariga bastalangan qo'shiqlarimni sevib ijro etaman. Men hozir Guliston shahridagi xorij tillari litseyining 8-sinf o'quvchisiman. Estrada yo'nalishida menga Baxtiyor aka Asanov va Anya


Aleksandrova ustozlik qilmoqdalar. «Qaldirg'och»

## QO'SHIG'I

dastasiga kelganimga, unda mumtoz qo'shiqlar kuylay boshlaganimga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. «Ey, nozanin», «Gul Navro'z keldi» kabi qo'shiqlarni sevib kuylayman. Guliston shahrimizda bo'lib o'tgan katta tantanalarda ijro etgan «Mustaqillik» qo'shig'im uchun Gran-pri sohibi bo'lganman...

-Bu yil dastamiz uchun juda omadli yil bo'ldi,- deya suhbatimizga qo'shildi dastaning yana bir qatnashchisi, Guliston shahridagi 8 -maktabning 7-sinf o'quvchisi Sanjarbek. -21 ta qo'shig'imiz jamlangan birinchi audialbomimizni sotuvga chiqardik.

O'zim haqimda gapiradigan bo'lsam, men ham



Shohruhdek mumtoz qo'shiqlar ijro etaman. Onajonim Mavluda opaning orzulari amalga oshishi uchun ham men yaxshi san'atkor bo'lishim kerak. Shu kungacha «Uch, varragim!», «Qaldirg'och» qo'shiqlarim bilan muvaffaqiyatlarga erishdim. «Quroq» nomli o'zbek filmiga aynan mening «Varrak» nomli qo'shig'im tanlab olinganini eshitib, juda quvondim:

*Uch varragim,  
Zavqqa to'lar yuragim.  
Keng osmonda yelkandek,  
Suzib ketdi varragim...*

Qo'shiqlarimni eshitganlar meni Anvar Sanayevga o'xshatishadi. O'zim Xorazm qo'shiqlarini yaxshi ko'raman. «Boysun bahori» festivalida «Mahallamizda to'y bugun», «Assalom, Boysun!» qo'shiqlarimni tomoshabinlar qayta - qayta ijro ettirishdi. Maqsadimiz - elimiz nazariga tushish...

Odatda biz qaldirg'ochni bahorda kutamiz. «Qaldirg'och» dastasining qo'shiqlarini esa yil bo'yi kutib qolamiz. Ular yurtimiz bo'ylab baralla yangrayversin. Darvoqe, bu dasta ijrosida qo'shiq tinglashni xohlasangiz, ertaga oyna y jahon orqali namoyish etiladigan bayram tantanalarini tomosha qiling. Ular istiqloq haqida jo'shib kuylashadi.

Ma'mura MADRAHIMOVA yozib oldi.

G'ijduvonda bir maxsus maktab-internat bor. U yerda sil xastaligi bilan og'rigan o'quvchilar tahsil oladilar. Fazliddin aka Sattorov rahbarlik qiladigan mazkur bilim dargohida o'quvchilarning puxta bilim olishlari, biror hunar egasi bo'lib chiqishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Fan va sport, she'riyat, ashula va raqs to'garaklari muntazam ishlab turibdi. Ayniqsa, Matluba opa Hamyatova boshqarib kelayotgan «Gulshan» nomli yosh qalamkashlar to'garagi, Muxlisa opa boshqarayotgan «Mohir qo'llar» to'garagi, Dildora Xabibullina va Bashorat Xodiyevalar rahbarlik qilib kelayotgan fan to'garaklari

doimo o'quvchilar bilan gavjum bo'ldi. Bu bilim maskanining o'quvchilari ular uchun yaratilayotgan g'amxo'rliklarning qadriga yetadigan o'g'il-qizlardir. Ulardan 9 nafari tuman miqyosida o'tkaziladigan «Zakovat» intellektual o'yinining doimiy



qatnashchilaridir. 7 - sinf o'quvchisi Murod Mahmudov «Men dunyoni ko'ryapman» nomli fotokor'gazmada 1 - o'rinni olishga muvaffaq bo'ldi. Hujjatli filmlar olish bo'yicha respublika tanlovida Gran-pri sohibi

## YANGI MAKTAB MUBORAK!

bo'ldi.

Bu maskanda o'quvchilarga bilim berish

bilan birga ularning hunarli bo'lishlariga ham katta ahamiyat

beriladi. O'quvchilar zardo'zlik, yumshoq o'yinchoqlar yasash, ganchkorlik, kashtachilik, popochilik, mis o'ymakorligi kabi hunarlardan birining egasi bo'lib chiqishadi. Ularga pichoqchi usta Islom, sopolchi usta Ibodullo, zardo'zlardan Sharifa opa, o'ymakor usta Abdullo akalar amaliyot mashg'ulotlari o'tishadi.

G'aybullo Hasanov, Sharifa A'zamova, Odil Jabborov kabi o'qituvchi va tarbiyachilar bolajonlarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga mehr ham ulashib kelmoqdalar. Shuningdek, bolajonlarning ta'tilda maroqli dam olishlariga ham alohida e'tibor beriladi. O'quvchilar ta'tilda maktab qoshida tashkil qilingan sog'lomlashtirish oromgohida mazza qilib hordiq chiqarishdi...

Maktab-internatni Buxoro yog' - moy kombinati o'z

homiyligiga olgan.

Bolajonlarni sarxil

mevalar bilan siylashadi, har bayramda sovg'a-salomlar ulashishadi. Yaqinda ular yana bir xayrli ishga qo'l urishdi: 150 ming so'm mablag' ajratib, har bir sinfni bir donadan «Tong yulduzi» gazetasiga obuna qildirishdi.

Mustaqillik bayrami arafasida mazkur bilim dargohi o'quvchilari yurtboshimizdan ajoyib sovg'a oldilar. Ertaga ular yangi o'quv yilini 3 qavatli yangi maktab binosida boshlaydilar. Kompyuterlar bilan jihozlangan xonalarni, barcha sharoitlarga ega sport zalini, tantanalar zalini, kattagina suv havzasini, issiqxonani, mevazor bog'ni ko'rib, o'quvchilar behad xursand bo'lishlari tayin.

Yangi maktab muborak, bolajonlar!

Ozoda MUHAMMEDOVA.



Sentabr... Quvonchlarga boy, o'quvchilar uchun sevimli bo'lgan bu oy bizning yurtida o'zgacha nishonlanadi. Uch oy ta'tilda bo'lgan bolajonlar aynan sentabrning 1-kunida qadrdon maktablariga qaytib, qo'shaloq bayramni nishonlashlari quvonarli hol, albatta. Bu tantanalarning biri - Birinchi qo'ng'iroq bo'lsa, ikkinchisi Mustaqillik bayramidir. Ushbu bayram bog'cha tarbiyachilari uchun yanada hayajonliroq o'tar ekan. Nima uchun, deysizni? Chunki, ular o'zlarining sevimli tarbiyalanuvchilarini,

maktabga kuzatib qolishadi-da. Bog'chani tark etgan erkatoylar e n d i tarbiyachilar o' r n i d a ustozlaridan saboq ola boshlaydilar.

Suratda: Kichik guruh tarbiyachisi Yunusobod tumanidagi «Oftobcha» nomli 154-bolalar bog'chasi tarbiyachilari ham katta guruh tarbiyalanuvchilarini maktabga kuzatib, o'zlari bog'chani ta'mirlash ishlarini boshlab yuborishgan ekan. Xonalarni aylanib yurib uch-to'rt ayolning ta'mirlash ishlari bilan b a n d ekanligini guvohi bo'ldik.

Bu ayollarning biri, aytsak balki ishonmassiz, bog'cha mudirasi Nurmuhammedova Gulchehra Malikovna ekanlar. Ish jarayonida ularni suhbatga tortdik:

**-Bolajonlarni maktabga kuzatib, o'zingiz ta'mirlash ishlariga kirishib ketibsiz-da?**

-Nimasini aytasiz, katta guruh tarbiyalanuvchilari bog'cha bilan xayrlashib ketganlariga uncha ko'p bo'lgani yo'q, lekin ularning o'rinlari huvillab qoldi. Go'yo, yuragimizning allaqayeri bo'shab qolgandek. Bir

# MUSTAQILLIK BOG'CHADAN SHLANSA...

ko'zimizda quvonch, bir ko'zimizda mehr yoshlari bilan ularni maktabga, ishonchli qo'llarga topshirdik. Maktabda yaxshi o'qib, bergan tarbiyamizni oqlashsa, bizga shuning o'zi kifo'ya. Quvonarli joyi shundaki, bizda tarbiyalangan bolalar maktab va litseylarga imtihondan ijobiy natijalarga erishib, qabul qilindilar.

## UCHINCHI MING YILLIKNING BOLASI

**-Yil davomidagi tarbiya jarayonida qanday dastur asosida ish olib borasizlar?**

-Davlat talablariga asoslangan «Uchinchi ming yillikning bolasi» nomli

dasturdan foydalanamiz. Ota-ona o'z farzandini ishonib bizga topshirar ekan, albatta ularning kelgusida yetuk va barkamol inson bo'lib ulg'ayishini xohlaydilar. Bolalarni go'dakligidanoq o'z shaxsiy fikriga ega, mustaqil shaxs sifatida kamol toptirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz. Chunki, bola ilk ta'lim-tarbiyani oilasidan, qolaversa, bog'cha tarbiyachilaridan olib, dunyoqarashi shakllanib boradi. Shuning

uchun ham e'tiborimizni bog'chamiz hovlisini turli ertak qahramonlarining suratlarini bilan bezatishga qaratdik. Ko'ruv idrokini rivojlantirish bolalar uchun



muhim omil hisoblanadi. Ularga biz yoshlik chog'laridan to'g'ri yo'nalish bera olsak, kelajakda orzuimizdagidek mustaqil fikrga ega shaxs bo'lib kamol topadilar.

**-Bayram arafasida o'tkaziladigan tadbirga bolajonlarning tayyorgarligi o'zgachaga o'xshaydi.**


-5-sentabr kuni «Mustaqil yurt farzandiman» deb nomlangan tadbirni o'tkazishni rejalashtirganmiz. Tarbiyalanuvchilar mustaqillik haqida she'rlar yodlab, qo'shiqlar kuylashadi. Izlanuvchan bolajonlar o'zlari mustaqillikka oid she'rlar topib yodlashyapti. «Labirus» bolalar teatri bilan hamkorlikda ushbu bayramni zo'r tantana qilib nishonlamoqchimiz. Hamkorimiz «Labirus»

teatri a'zolari bog'chamizga tashrif buyurib, bayramlarimizga o'zgacha quvonch baxsh etadi. Bolajonlarimizni xursand, quvnoq kayfiyatda ko'rish biz uchun katta baxt. Zero, barchamiz hayotimiz quvonchlari - aziz farzandlarimiz deb yashaymiz.

Fursatdan foydalanib, barcha bolajonlarni va ularning tarbiyachilarini bayram bilan qutlayman. Mustaqil yurtimizning mustaqil farzandlari millatimizga, xalqimizga, elimizga xos va mos o'g'il-qizlar bo'lib kamol topishsin!

Ezgu niyatlari bilan bolajonlar tarbiyasiga mas'uliyat ila boqayotgan ushbu mehridaryo tarbiyachilarga doimo sog'lik va

xush kayfiyat yor bo'lishini tilab qolamiz. Ular bilan Mustaqillik bayramida ko'rishishni va dalalashib, xayrlashdik.



Gulyuz BAHODIR qizi suhballashdi.

## BIR O'LKA BOR...



Jahonda Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, al-Xorazmiy, Pahlavon Mahmud, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband singari ko'pdan-ko'p dunyoga mashhur shaxslarni kamol toptirgan bir o'lka bor. Uning nomi - O'zbekiston. Bu yurt farzandlari o'z xalqining mustaqilligi, erki, ozodligini necha asrlardan buyon orzu qilib keldi. Nihoyat,

Ammo, ozodlik deb Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Fitrat kabi millatimiz faxrlari jonlarini fido qildilar. Ularning muqaddas va tabarruk xotirasi nafaqat tarixda, balki insonlarning qalbida o'chmas iz bo'lib muhrlanib qolgan. Ular orzu qilgan baxt bizga nasib qilganidan bugun quvonchimizning poyoni yo'q.

Xalqimizda «Asrga ta'tigulik yillar» degan ibora ko'p uchraydi. Darhaqiqat, vatanimiz O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, ajdodlar ruhini shod avlodlar ko'nglini obod etayotgan yillarni shubhasiz shunday baholash mumkin. Mehnat insonni el oldida yuzini yorug' qilgani sari, istiqlo'l ham jahonda taraqqiy etgan davlatlarning safida vatanimizning qadr-qimmatini yuksakka ko'tardi.

Xalqimizning baxtiga Ona vatanimiz doimo tinch-farovon, erkin, mustaqilligi esa abadiy bo'lsin. O'zbekistonimiz jahondagi eng buyuk davlatlar qatoridan o'rin olib, qudratli, shuhratli, fan-madaniyati, rivojlanish taraqqiyoti butun olamni tutsin.

Sherzod SULTONOV,  
Farg'ona viloyati,  
Oltiariq tumani.



O'zbek adabiyotida Abdulla Qahhor so'z ustasi deyilgani kabi, rus adabiyotida I.S.Turgenev ham benazir so'z san'atkori bo'lgan. U so'zlarni joy-joyida ishlatadi, asar qahramonlarining nutqi va harakatlari ularning xarakterlariga mos keladi.

«I.S. Turgenevni so'nggi 25 yil mobaynida bizning o'qimishli jamiyatimiz o'rtasida hukm surgan axloq va falsafaning go'zallik kuychisi, fashohat naqqoshi deb atash mumkin», deb yozgan edi Dobrolyubov. Darhaqiqat, «Arafa», «Dvoryanlar uyasi», «Otarlar va bolalar», «Bahor toshqinlari», «Ovchining xotiralari», «Mumu» kabi ajoyib asarlari yuqoridagi fikrning dalili bo'lishi mumkin. Ayniqsa, «Ovchining xotiralari» turkumidagi «Bej o'tlog'i» hikoyasi menda katta taassurot qoldirdi. Shu hikoya haqida ayrim fikr-mulohazalarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Hikoya yoz faslining so'lim tasviri bilan boshlanadi: Rostini aytsam, bu hikoyani o'qiy boshlaganimda, juda zerikarli asar ekan, deb tashlab qo'ydim. Oradan ancha vaqt o'tgach, yana qo'limga oldim, chunki shu asar bo'yicha imtihon topshirishim kerak edi. Hikoyaning men uchun zerikarli qismi uzundan-uzun tabiat manzaralari tasviri

bo'lgan. Nihoyat, manzaralardan qutulib, odamlarga duch keldim. Shundan keyin hikoyani zo'r qiziqish bilan o'qiy boshladim. Asar qahramon tilidan bayon etiladi. Hikoyaning qisqacha mazmuni bunday: «Bitta ovchi yo'ldan adashib, o'rmonu

# «BEJ O'TLOG'I»

dalalarda

daydib yuradi. «Nihoyat, qayerga kelib qolganimni bildim. Bu o'tlog' bizning joylarda «Bej o'tlog'i» deb dong chiqargan», deb qahramon bizni

*Men sevgan kitob*

asosiy voqeaga olib kiradi. U gulxan atrofida o'tirgan odamlarni ko'rib qoladi, ularni yilqi boquvchilar deb o'ylaydi. Lekin, pastga tushgach, yanglishganini anglaydi. Chunki gulxan atrofida bolalar o'tirishardi. Ular yilqilarni qo'riqlayotgan ekan. Aslida hikoya shu joydan boshlanadi: «Fedya, Pavlusha, Ilyusha, Kostya, Vanya ismli bolalar suhbatlashib o'tirishardi. Fedya ularning kattarog'i, 12 yoshlar chamasida, Vanya esa eng kichkinasi- 7 yashar edi. Ular gulxan atrofida o'tirib, olovda kartoshka pishirishardi. Safiga begona odam qo'shilgach, yana chala qolgan gaplarini davom ettirishardi. Ma'lum bo'lishicha, ular alvasti-yu ajinalar haqida

gaplashayotgan ekan».

Bu hikoyani o'qir ekanman, beixtiyor o'z bolaligimni esladim... Biz ham qishloqda qo'rga kartoshka ko'mib yeganmiz va tabiiyki, alvastilar, jinlar to'g'risida gaplashganmiz. Bunday paytda atrofdan notanish

turgandan keyin,- ish chatoq,- dedi.

-Ha, nima bo'ldi? -deb shoshib so'radi Kostya.

-Men Vasyaning ovozini eshitdim.

Bolalarning hammasi titrab ketdi.

-Nima deding,

nima deding?! Rost bilanmi? -dedi Kostya dovdirab.

-Xudo ursin, rost!..

-Ey xudoyim-ey,-deb yuborishdi bolalar cho'qinib.

Pavel, unday bo'lsa, seni suv alvastisi chaqiribdi,-dedi Fedya».

tovush eshitiilib qolsa, xuddi ajina kelayotgandek qo'rqib ketardik. Menimcha, har bir bola mana shunday sarguzashtni boshidan kechirsa kerak. Hikoya qahramonlari ham xuddi o'shanday hayajonli damlarni boshidan kechiradi. Asarni o'qiyotib, o'zim ham o'sha bolalar safida o'tirgandek bo'ldim. Yozuvchi voqeani shu qadar mahorat bilan tasvirlaganki, o'quvchi hamma narsani ko'rib turadi. Hatto hikoya mutoalasidan so'ng bir-ikki kun ajinaga duch kelib qolmasam go'rga edi, deb qo'rqib yurdim. Agar siz ham hikoyani o'qib chiqsangiz, o'shanday holatga tushishingiz mumkin.

Hikoyada shunday lavha bor:

«- Ana, Pavlusha, kelyapti,- dedi Fedya.

Pavel dekchada suv ko'tarib keldi.

-Bolalar, bilasizlarmi, - deb gap boshladi u, biroz jim

Shu o'rinda tarjimonga e'tiroz bor. Menimcha, «suv alvastisi emas, balki suv parisi deyilsa to'g'riroq bo'lardi. Hikoya bundan deyarli 40 yil burun tarjima qilingan. (Madamin Ibrohimov tomonidan) Ehtimol, Shukur Xolmirzayevga o'xshagan nuktadon yozuvchi I.S.Turgenev asarlarini qaytadan tarjima qilsa, rus yozuvchisining chinakam so'z san'atkori ekanini yanada yaqqolroq tasavvur etardik. Men amin bo'ldimki, biz nafaqat milliy adabiyotimizni, balki I.S.Turgenev, A.P. Chexov, Lev Tolstoy kabi rus yozuvchilarining asarlarini ham o'qishimiz lozim ekan. Siz nima deysiz, gazetxon?..

Kamola HAQQULOVA.




Qadim zamonda bir savdogar bo'lgan ekan. Savdogarning yakkayu yagona Kamak ismli o'g'li bo'lgan ekan. U ko'rkam bo'lish bilan birga botirlik va dovyuraklik bilan dovruq taratgan ekan. Bir kuni qishloq podachisi mollarga

## PAHLAVON O'G'OLON

o'rmondan yo'lbars hujum qilganini, bir nechta mollarni va o'zini jonini zo'rg'a saqlab qolganini aytibdi. Yo'lbars bilan olishishga bir nechta alp qomatli yigitlar ketibdi. Ammo birortasi ham o'rmondan qaytib kelmabdi. Oradan bir oy vaqt o'tibdi. Bir kuni Kamak otasiga: «Otajon, o'sha yo'lbars bilan men ham olishishga boraman», deb ijizat so'rabdi. Ammo otasi unga yakkayu yolg'iz o'g'il ekanligini, unga biror kor hol bo'lsa, otasi ko'tara olmasligini aytibdi. O'z so'zida turib olgan Kamak otasidan oq fotiha so'rayveribdi. Savdogarning fotiha berishdan o'zga chorasi qolmabdi...

Kamak o'rmonga o'tlanibdi. U panada yo'lbarsning yo'lini

poylay boshlabdi. Shu payt qattiq o'kirgan ovoz kelibdi. Kamak payt poylab turib, yo'lbarsga kamondan o'q uzibdi. Lekin o'q tegmabdi. Odam isini sezgan yo'lbars quturib ketibdi va Kamakka tashlanibdi. Uzoq olishuvdan so'ng, Kamak bor



kuchi bilan yo'lbarsga xanjar uribdi. Yo'lbars bir o'kirib, tinchib qolibdi. Kamak ham og'ir jarohatlanib, hushini yo'qotibdi. O'g'lini ko'rishdan umidini uzgan ota uning jasadini olib kelish maqsadida o'rmon tarafga

yo'l olibdi. Yo'l yurib charchagan ota o'rmon ichkarisida yo'lbarsga ko'zi tushibdi. Uni tirik deb o'ylab, o'zini panaga olibdi. Shu payt bir narsani bosib olibdi. Qarasa, o'g'lining kamonidan otilgan o'q ekan. U yo'lbarsni kuzatibdi, u qimirlamagach, yaqinroq boribdi.

Qarasa, yo'lbars o'lib yotganmish.

Uning yonginasida qonga belangan Kamakni ko'ribdi. Savdogar o'g'lini otiga o'ngarib, tabibnikiga olib boribdi. Tabib Kamakning jarohatlariga malham suribdi. Kamak uch kun deganda o'ziga kelibdi. Butun qishloq ahli bahaybat yo'lbarsni o'ldirgan Kamakdan xabardor bo'lib turishibdi. U avvalgidek holiga qaytgach, qishloqda Kamakning sharofatiga katta ziyofat uyushtirilibdi. Hamma shunday o'g'ilni tarbiyalab, voyaga yetkazgani uchun savdogarga minnatdorchilik bildiribdi. Vahshiy yo'lbarsdan qutulgan qishloq ahli yana tinch va farovon yashay boshlabdi.

Bekpo'lat HAYITBOYEV,  
Toshkent shahari,  
Hamza tumani.

## YOQIMLI QO'SHIQ

Qadim zamonda chol bilan kampir yashagan ekanlar. Ularning tovuqlari, xo'roz, it, mushuk va uloqchalari bor ekan. Chol va kampir ularni mehr bilan

parvarishlab b o q a r ekanlar.

Bir kuni chol betob bo'lib yotib qolibdi. Kampirini yoniga chaqirib shunday debdi:

-Kampir, kunim bitgan ko'rinadi, o'lib-netib qolsam, mendan rozi bo'lgin...

Bexosdan bu gapni eshitib qolgan mushuk miyovlab yig'lab yuboribdi. Bu shumxabarni eshitgan hayvon va parrandalar o'z-o'ziga maslahatlashib, eg'izning ko'nglini olaylik, u

kishi bizga qanday mehribon edilar-a, deyishibdi.

-Me-ye-ye, men darrov borib, orfamdand sut olib kelay,-debdi Uloqcha.

-Qu-qu-qu, bobom mening tuxumlarimdan yesalar, quvvatga kirib ketadilar,-debdi Tovuq.

-Miyov, men o'g'riga n oyoqlaringizni silab qo'yaman,-deya ishga kirishib ketibdi Mushuk.

-Tezroq tuzaling bobojon,-deya vovullabdi Kuchuk.

B u n d a y mehribonchilik-lardan boboning boshi ko'kka yetibdi. Ularning so'zlari yoqimli kuy singari orom bag'ishlabdi.

Bobo tez kunda oyoqqa turib ketibdi va bu hovlida yana baxtiyor hayot davom etibdi.

Malika  
RAHMONBEKOVA.



Assalomu alaykum qadrdomim «Tong yulduzi». Men Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi 59 - o'rtta maktabda ona tili va adabiyot fanidan saboq beraman. Qo'limga qalam olib, qo'yarda-qo'ymay senga maktub yo'llashga undagan o'quvchilarimdir. Chunki ular seni juda sevib o'qishadi. Nafaqat ular, maktabimiz o'qituvchilari ham har bir soningni zo'r qiziqish bilan o'qib chiqishadi. Qalamkash tengdoshlari ijodidan bahramand bo'lishadi. Ularga havas qilib, o'zlari ham qalam tebratishadi. Ana shunday ijodkor o'g'il-qizlarni jamlab, «Nihol» nomli to'garak tashkil qilganman. «Opa, biz ham she'rlarimizni «Tong yulduzi»ga jo'nataylik», deya holi-jonimga qo'yishmaydi...

Yaqinda to'garagimizda istiqloлга bag'ishlangan mushoira o'tkazdik. Quyida o'quvchilarning mushoirada o'qilgan she'rlaridan namunalar yuboryapman. Ular gazetada chop etilsa, o'quvchilarim juda xursand bo'lishardi-da. Hozirdanoq ularning xursandchiligini ichimga sig'dirolmayapman. Axir shogirdlarimning shodligi, yutug'i meniki hamda!

Salom bilan, Oydin MO'MINJON qizi.

## O'ZBEKISTONIM

Tuproq'ing ko'zimga,  
To'liyo qilgum.  
Valanim nomingni,  
muqaddas bilgum.  
Men sening farzanding -  
Jonu jahonim.  
Biz seni sevamiz,  
O'zbekistonim.  
Shaharlaring go'zal,  
Chamanlaring bor.  
Qishloqlaring ko'rkam,  
Har yog'i gulzor.  
Seni ko'rolmaslar,  
Xor bo'lib qolsin.  
Bir kun tuprog'ingga,  
Zor bo'lib qolsin.

Nargiza KALONOVA,  
5 - «A» sinf o'quvchisi.

## JANNATMAKON YURTIMSAN

Mevaga boy bog'laring,  
Gul-tolali tog'laring,  
Suvi zilol soylaring,  
Jannatmakon yurtimsan.  
Quyoshing kulib boqar,  
Shabbodang langa yoqar,  
Suvmas, sharbat, bol oqar,  
Qo'rg'onim O'zbekiston!  
Kulib boqar kamalak,  
Qanot qoqar kapalak,  
Farzandlaring bo'lajak,  
Posboning O'zbekiston!

Dilrabo QODIROVA,  
6 - «A» sinf o'quvchisi.

## QO'SHIQ AYTSAM

Qo'shiq aytsam Vatan haqida,  
Ko'kada quyosh kuladi.  
Shamollar ham sochim silab,  
Mayingina yeladi.  
Qo'shiq aytsam Vatan haqida,  
Qarsak chaladi gullar.  
Menga jo'rovaz bo'lib,  
Qushtlar xonishlar qilar.  
Qo'shiq aytsam Vatan haqida,  
O'zim quvnab, jo'shaman.  
Valanimning ravnaqiga,  
Albat hissam qo'shaman.

Gulchehra MALIKOVA,  
59 - o'rtta maktab o'quvchisi.

## VATANIM

Vatan yagonamsan,  
Baxti borimsan.  
Sen onam, singlimsan,  
Nomus, orimsan.  
Har bir farzandingga,  
Mehringdir bisyor.  
Valanim qalbimda,  
Senga ishqim bor.  
Har qariching bo'lsin,  
Bog'u gul, bo'ston.  
Istiqloл muborak,  
Hur O'zbekiston!


Muazzamoy OZODBEKOVA,  
5 - «A» sinf o'quvchisi.

Andijonlik tengdoshlaringiz boshlab bergan istiqloл mushoirasini sizlardan kelgan she'rlar asosida biz ham davom ettirishga ahd qildik:



## ZARMIJON

Oltining ko'p yer qa'rida,  
Qo'ylaring ko'p tog' bag'rida.  
Meva pishar bog'laringda,  
Buloq qaynar soylaringda.  
Giyohlaring shifoga boy,  
Osmoningda yarqirar oy.  
Qishloq'ingda yarqirar soy,  
Chiroyingga qo'shar chiroy.  
ZarmiJonim, oltin koni,  
Valanimning lani-joni.  
Shaxtalarda mehnat qilar,  
Qishloq'inning mard o'g'loni.  
Bobojonim mehnat qilgan,  
O'sha konda ishlar olam.  
O'qib, uqib, kamol topib,  
Konchi bo'lsam deyman men ham.

Tursunpo'lat EGAMOV,  
Samarqand viloyati,  
Qo'shrabot tumanidagi  
71 - o'rtta maktabning 5 - sinf o'quvchisi.



Istiqloл mushoirasi



## ISTIQLOL FARZANDIMAN

Mustaqillik yoshiga,  
Tepha-teng mening yoshim.  
Yurtimiz asmonida,  
Balqir lolo quyoshim.  
Hur Vatan dilbandiman,  
Istiqloл farzandiman.  
Orzulari ushalgan,  
Men xalqimning ertasi.  
Portloq nurga cho'milgan,  
Kelajakning egasi.  
Hur Vatan dilbandiman,  
Istiqloл farzandiman.

Nigora RAVSHANOVA,  
Toshkent viloyati, Chirchiq  
shahridagi  
2 - ixtisoslashgan maktabning

## O'N UCH YOSHING MUBORAK!

O'n uch yil to'libdi mustaqillikka,  
O'n uch yosh muborak bo'lsin yurtimga.  
Ozodlik, obodlik, berdi istiqloл,  
Mehuatkasi xalqimga zafar va iqbol.  
Charog'on yurtimning har go'shasida,  
Istiqloл bayrami katta tantana.  
Dillarni tark elgan qayg'u va alam,  
Yurtimning har kuni, har oni bayram.  
Yuksaldi barq urdi shuhrat cho'qqiga,  
Bayrog'i hilpirar dunyo tog'iga.  
Ona yurt go'zaldir chin ko'rkam obod,  
Istiqloл yashasin doim barhayot.  
Yurtimning osmoni nurlarga to'lsin.  
Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

umidan@rambler.ru

## VALANIM YULDUZIMAN

Boshimdagi zar do'ppi,  
Ostobday nur sochadi.  
Qalbimda quvonch ko'pmi,  
Qayg'u mendan qochadi.  
Atlas ko'ylak egnimda,  
Fovlanar kamalakdek.  
Gul bog'inda quvnayman,  
Chiroyli kapalakdek.  
Xalqimizning erkasi,  
Ozod o'zbek qiziman.  
Yurtimiz kelajagi -  
Valanim yulduziman.

Dilobar MUSAJONOVA,  
Toshkent shahridagi  
Abu Rayhon Beruniy nomli  
243 - maktabning 9 - «B» sinf o'quvchisi.

## NEDIR KERAK - BARI BOR


Ona yurtim bag'ringda,  
Unib o'sdik baxtiyor.  
Barkamol o'sish uchun,  
Nedir kerak - bari bor!  
Qilaylik senga xizmat,  
Ona yurtim jon tanim.  
Bizga suyangin har on,  
O'zbekiston Valanim!

Madina SAIDMURODOVA,  
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi  
5 - ixtisoslashtirilgan maktabning  
8 - sinf o'quvchisi.

## MUSTAQILLIK MENING

### QALBIMDA

Yosh qalbimda muhabbat qaynoq,  
Aziz yurt, deb yonib yashamoq.  
Xalqim uchun eng buyuk saboq,  
Mustaqillik mening qalbimda.




Hur Vatanida qush kabi ozod,  
Ajdodlarning ruhini etib shod,  
Yurtini asrab, qilgaymiz obod,  
Mustaqillik mening qalbimda.  
Qo'ndi boshga Baxt qushi Humo,  
Yurtimiz tinch, osmon musaffo,  
Vatan uchun shu jonim fido,  
Mustaqillik mening qalbimda.

Nazokat AHMADJONOVA,  
Farg'ona viloyati, Oltiqliq tumanidagi  
7 - maktab o'quvchisi.



Go'zal Sagdullayeva - mustaqillik tengdoshi, yaqinda umrining 13 bahorini qarshi oldi. Jizzax viloyati, Jizzax shahridagi 21-o'rtamaktabning 8-sinfini a'lo baholarga yakunladi. Adabiyotga, she'riyatga qiziqishi baland bo'lgani uchun ham ta'til kunlari hecham zerikmadi. Qo'lidan kitob, qalam tushmadi desa ham



qolgandirsiz?

-Albatta, sinf xonalarimizni, dugonalarimni tushlarimda ko'rib chiqyapman-ku...

-Sizni dugonalariniz «Rassom qiz» ham deyishar ekan. Rasm ham chizasizmi?

Majnun», Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanlarini o'qib chiqdim. Shuningdek, «Tong yulduzi» va «Gulxan»lar har kungi hamrohim bo'lishdi.

-Maktabni ham sog'inib

rivoyatlarimu ertaklarim asosida o'zim ham hikoyalar, ertaklar yozyapman.

-Bugunning bolasi qanday bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz?

-Bugunning bolasi kompyuter bilimdoni, bir necha tilni biladigan zukko, har narsaga ulguruvchan tezkor, eng muhimi, dilidagini tiliga dadil chiqara oladigan bo'lishi lozim. Shundagina dunyodagi tengdoshlari bilan bermalol tillasha, dillasha oladi. Men ham ta'tilda ingliz tilini mustaqil o'rganib oldim.

-Shoira bo'lasizmi yo rassom?

-Unisiga

ham, bunisiga ham da'voim yo'q. Nasib bo'lsa, Yulduz Ochilova, Guli Ikromova, Nilufar Umrzoqovalar kabi jiddiy, bilimdon telejurnalist bo'lmoqchiman. Ularga juda hayasim keladi...

-Havas bilan yashagan inson murodigiga yetadi, deyishadi-ku. Demak, siz ham albatta murodingizga yetasiz.

### O'ZBEK QIZLARI

Do'ppi kiyib boshiga,  
Jamalak ham sochida.  
Kovush kiyib poyiga,  
O'sma qo'yar qoshiga.

Go'zallikda tengi yo'q,  
So'zlari ham muloyim.  
Varashadi qizlarga,  
Atlas kiysalar doim.

## «MAKTABIMNI TUSHLARIMDA KO'RYAPMAN»

bo'laveradi. Talaygina she'rlar qoraladi, hikoyalar yozdi. Fursat topildi deguncha, uyidagi mo'jazgina kutubxonasiga kirib oladi-da, kitoblar olamiga g'arq bo'ladi. Go'zalni dugonalari «Rassom qiz» ham deyishadi. Chizgan rasmlarini ko'rsangiz, sizning ham havasingiz kelib ketadi.



-Go'zaloy, ta'tilda kitob o'qibsiz, she'rlar yozibsiz. Dam olishga ham vaqtingiz qoldimi?

-Dam olishni har kim har xil tushunadi. Sizni bilmadimu, men kitob o'qisam, she'r yozsam dam olaman. Said Ahmadning «Qorako'z


-Odatda she'r yozsam, ko'z oldimga undagi manzaralar kelaveradi. Keyin ularni qog'ozga tushiraman.

-Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar, deyishadi. Sizning ustozingiz bormi?

-Yozgan she'riy mashqlarimning birinchi tinglovchilari onam, buvim, singillarim bo'lishsa, ikkinchisi - ustozim Sulton aka Po'latovdirlar. Ular she'rlarimning kamchiliklarini ko'rsatadilar, maslahatlarini ayamaydilar. Buvijonimni ham o'zimga ustoz deb bilaman. Chunki ulardan eshitgan



Nargiza AKBAR qizi suhbatlashdi.



**BO'YIGA:** 2. O'zbekiston poytaxti. 5. 1992 yil 8 dekabr yurtimiz hayotida qanday hodisa ro'y bergan? 7. Ona qo'shig'i. 10. 1999 yilda xonandalarni taqdirlash uchun ta'sis etilgan unvon. 13. Yurtimizdagi obod viloyatlardan biri. 14. Vatan sog'inchi girdobida yashagan shoh va shoir. 16. Afsonaga aylangan sarkarda ayol. 18. O'zbekiston ramzlaridan biri. 19. Adabiyotimizda birinchilardan bo'lib vatanda yashab turib, bevatan qolish muammosini ko'tarib chiqqan adib. 22. «Tug'ma iste'dod» taxallusi bilan ijod qilgan shoir. 23. O'zbekistondagi qadimiy viloyat. 26. Oliy Majlis raisi. 28. Rizq - ro'z boyligi manbai.

**ENIGA:** 1. 1992 yil 2-martda O'zbekiston qanday tashkilotga a'zo bo'lgan? 3. XII asrgacha Toshkent qanday nom bilan atalgan? 4. I. To'laganova qanday sport turi bo'yicha O'zbekiston kubogini qo'lga kiritgan? 6. Muqaddas dargoh. 8. 4 xil rang mujassamlashgan ramzlardan biri. 9. Mustaqilligimiz yo'lida jonini fido qilgan adib. 11. Farg'oniy asos solgan fan. 12. A. Navoiyning 5 dostonidan iborat asari. 15. Yurtimizga qo'shni davlat. 17. Samarqanddagi tarixiy maqbara. 20. Ajdodlarimiz ruhi ... qoladi. 21. O'zbekiston terma jamoasi. 24. Buxorodagi 2 - haj deya aytiladigan ziyoratgoh nomi. 25. Andijondagi qaysi tumanda mashina ishlab chiqariladi? 27. Jizzaxdagi dam olish maskani. 29. O'zbekiston terma jamoasining to'purar futbolchisi.

Tuzuvchi: Gulshan ERGASHEVA, Toshkent shahar, Chirchik tumanidagi 281-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**

Umida ABDUAZIMOVA

**TAHRIR HAY'ATI:**

Turobjon JO'RAYEV,  
Shuxrat AHMEDOV,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
O'ktam OHUNOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida № 022 raqam bilan 2003 yil 11 dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir  
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahilandi.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.  
Toshkent matbaa kombinatida chop etildi.  
Adadi - 12527  
Buyurtma № J 000499

Gazetani Otabek ESHCHANOV sahilandi.  
Navbatchi: Ozoda TURSUNBOYEVA.

Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198

Bizning elektron pochta: ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08  
144-62-34  
Tel./ faks: (99871) 144-37-24